XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2023 - yil 3 - may VI-63-53-8-110-K/23 Boysun tuman hokimligi

Boysun tumanining “Kosiblar”, “Dashtig‘oz” “Yuqori Machay”, “Bibishirin” va “Gaza” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ayrim ko‘chalarning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 12-dekabrdagi 01-11/17208-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 30-yanvardagi 07-18//541-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 7-fevraldagi 08-00940-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Boysun tumanining “Kosiblar”, “Dashtig‘oz” “Yuqori Machay”, “Bibishirin” va “Gaza” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ayrim ko‘chalarning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 12-dekabrdagi 01-11/17208-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 30-yanvardagi 07-18//541-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 7-fevraldagi 08-00940-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi

davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (M.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (F.Murtazoyev) nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari manzillariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (M.Mirzayev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (X.Nazarov) hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Yu.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati mazkur qarorning rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bahovuddinov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Tursunqulov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi v.b **UZBEKOVA ZOHIDA BAXROMOVNA**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023 yil 3 maydagi
VI-63-53-8-110-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	“Quvonchli”	1. “Oriyat” 2. “Hidoyat”	Takliflardan **Hidoyat** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	“Dashtig‘oz” MFY	“Mehrigo‘yo”	1. “Novza” 2. “Mardonavor”	Takliflardan **Novza** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	“Yuqori Machay” MFY	“Umid niholi”	1. “Qashqar” 2. Bisyor	Takliflardan **Qashqar** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	“Bibishirin” MFY	“Chashmali”	1. “Shirinbuloq”	Takliflardan “**Shirinbuloq”** – “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozili”shi qoidalari asosida normallashtirildi.
5.	Ko‘cha	“Dashtig‘oz” MFY	“Shabboda”	1. Artizan 2. Serjilo	Takliflardan “**Serjilo”** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	“Gaza” MFY	“Islohot”	1. “Markaz” 2. “Tojmahal”	Takliflardan “**Tojmahal”** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.